

## **YOSHLARNI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA**

**Mustayev Ruslan Damirovich**

*Farg'ona davlat universiteti*

*harbiy ta'lim fakulteti boshlig'ining o'quv ishlari bo'yicha o'rinnbosari, dotsent*

*Farg'ona, O'zbekiston*

*mustayevruslan484@gmail.com*

**Nasriddinov Jasurbek Nosirjon o'g'li**

*Farg'ona davlat universiteti*

*harbiy ta'lim fakulteti 3 bosqich 21.132 guruh kursanti*

**Xaytboyev Ubaydullo Muzaffar o'g'li**

*Farg'ona davlat universiteti*

*harbiy ta'lim fakulteti 3 bosqich 21.132 guruh kursanti*

**Annotatsiya:** Vatan – bu inson va uning avlod ajdodlari kindik qoni to‘qilgan muqaddas dargohdir. Vatan-bu ajdodlar maskani el yurt, xalq voyaga yetgan, uning tili, tarixi, madaniyati, urf odatlari, qadriyatları chinakamiga ishlanib, kamol topib boradigan zamindir.

**Kalit so’zlar:** *harbiy vatanparvarlik, ijtimoiy-psixologik muammo, vatan tuyg’usi.*

Vatan deganda hamisha o‘zimiz tug‘ilib o‘sgan, ko‘z ochib ko‘rgan, ta’lim tarbiya olib voyaga yetgan, necha-necha ajdodlarimiz yashab o‘tgan, ularning aql- idroki, mehnati sarf qilingan yurt ko‘z oldimizga keladi.

Vatan ona kabi aziz va muqaddasdir. Vatan insonga baxt iqbol beradigan zamindir. A.Avloniy aytganidek: “Har bir kishining tug‘ilib o‘sgan shahar va mamlakatini shul kishining Vatani deyilur. Har kim tug‘ilgan, o‘sgan joyini jonidan ortiq suyar... Biz Turkistonliklar o‘z Vatanimizni jonimizdan ortiq suyganimiz kabi arablar Arabistonlarini, qumlik issiq cho’llarini, eskimoslar Shimol taraflar, eng sovuq qor va muzlik yerkarni va boshqa yerkarni ziyoda suyarlar. Agar suymaslar edi, havosi yaxshi Turonlik oson yerkarga o‘z vatanlarini tashlab hijrat qilurlar edi”.

Vatan – bu xalqning o‘tmishi, buguni va kelajagidir. Vatan – muqaddas qadriyat. Taraqqiyot Vatandan boshlanadi. U insonning kindik qoni to‘kilgan joy, insonni ijtimoiy yetimlikdan asrovchi manzil, ma’naviy kamolot va fuqorolik maydoni, hayot maktabi, farovonlik va baxt-saodat o‘chog‘idir.

Vatan tuyg‘usi bo‘lgan kishidagina vatanparvarlik jo‘sh uradi. O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti I A Karimov aytganidek: “Vatanga muhabbat hissi odamning qalbida tabiiy ravishda tug‘iladi. Ya’ni, inson o‘zligini anglagan, nasl-nasabini bilgani sari yuragida vatanga bo‘lgan muhabbat tuyg‘usi ildiz otib, yuksala boradi. Bu ildiz qanchalik chuqur bo‘lsa, tug‘ilib o‘sgan Vatanga muhabbat ham shu qadar cheksiz bo‘ladi” .

Vatan tuyg‘usini o‘zida mujassam etgan kishigina jamiyat va xalq manfaati, uning baxt-saodati uchun kurashadi. Shunday ekan, O‘zbekistonda yashovchi har bir yosh avlod

kelajagi buyuk bo'lgan davlatimizni dunyoga tanishtirishda yagona maqsad sari birlashishi kerak. Maktab, akademik litsey va kasb-hunar kolleji oquvchilarida vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki mazkur o'quv muassasalarida tahsil olayotgan o'quvchilar jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotida o'zlarining munosib o'rinalini topishlari, jamiyat va Vatan ravnaqi uchun sidqidildan xizmat qilishlari, fidoyilik ko'rsatishlari, safarbarlik xislatlarini namoyon qila olishlari uchun ularda harbiy vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish nihoyatda zarur.

Ona – yerimiz, Vatanga bo'lgan muhabbat, oljanob tuyg'ular xalqimiz qon qoniga singib ketgan milliy harakterining azaliy fazilatlaridandir. Bu qadrli insoniy fazilatlarni asrabavaylash va takomillashtirish, yoshlarni mustaqil O'zbekistonning munosib o'g'il-qizlari qilib tarbiyalashimizning asosiy yo'nalishlari bo'lib qolishi kerak.

Ko'p asrlik tariximiz davomida yuzaga kelgan, eng Yaxshi jangovar va mehnat an'analarimiz o'zining boy ma'naviy kuchini yo'qtgani yo'q. Uning chuqur manbalarga ega ma'naviy imkoniyatlari juda ham yuqoridir, hamda hozirgacha qadrlanib kelinmoqda.

Yurtimiz mustaqilligidan keyingi yillarda yosh avlodni vatanparvar, milliy g'ururli, ma'naviyati yuksak insonlar etib tarbiyalash yanada dolzab muammo kasb etmoqda. Chunki, milliy mustaqilligimizni aynan vatanparvar, har tomonlama barkamol yoshlar mustahkamlaydi, rivojlantiradi, uni dunyodagi rivojlangan mamlakatlar qatoriga olib chiqadi. Bunday yosh avlodni shakllantirish borasida yurtimizda bugungi kunga qadar tafsinga loyiq ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning ham birinchi e'tibori yoshlarga qaratilgan. Yoshlarga jahon standartlari darajasidagi sharoitlarni yaratish, ta'limgarbiya berish, har tomonlama qo'llab-quvvatlash yurtimizda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmunini tashkil etmoqda.

Milliy mustaqillik - xalqimizda ayniqsa o'sib kelayotgan yosh barkamol avlodimizni vatanparvarlik tuyg'ularining tiklanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Avvalo, hozirda yoshlarning harbiy vatanparvarligi ota-bobolarimiz yaratuvchanlik ishining bevosita davomidir. Saodatli, baxtli, kelajagi buyuk O'zbekistonga hozir har daqiqada ulush qo'shmoq, vatanga muhabbat, vatanparvarlikning asl ko'rinishidir. Vatanga munosib farzand bo'lish, uning eri, suvi, elu-yurt bilan chambarchas bog'liq ekanligimizni teran anglash, uni ardoqlash ham vatanparvarlikning bir ko'rinishidir.

Vatanparvarlikning eng oliy tuyg'u sifatida o'tmish mutafakkirlari alohida qayd etganlar va o'zлari ham unga sodiq qolganlar. Endi ana shu qaydlardan ba'zilarini eslab o'tamiz.

Siseron (Rumo notig'i va faylasufi). Bizga ota-onalar, bolalar, yaqin xesh-aqrobalar qimmatlidir, lekin muhabbat bobidagi barcha tasavvurlarimiz birgina "Vatan" degan so'zda mujasamlashgan. Vatanga nafi tekgudek bo'lsa, qaysi vijdonli odam u uchun jonini berishga ikkilanan ekan!

Gegel (nemis faylasuf). Ma'rifatli xalqlarning haqiqiy jasorati Vatan yo'lida qurban bo'lishga hozir ekanliklarida aks etadi.

Bayron (ingliz shoiri). Kimki o'z yurtini sevmasa, u hech nimani seva olmaydi.

Belinskiy (rus tanqidchisi). Kimki o'z Vataniga dahldor bo'lmasa, u insoniyatga ham dahldor emas.

Gyugo (franso'z adibi). O'z Vataniga dog'- tushurish uni sotish degan so'z.

Vatan tuyg'usi bo'lgan kishidagina vatanparvarlik jo'sh uradi. Vatanga muhabbat hissi odamning qalbida tabiiy ravishda tug'iladi. Ya'ni, inson o'zligini anglagan, nasl-nasabini bilgani sari yuragida vatanga bo'lgan muhabbat tuyg'usi ildiz otib, yuksala boradi. Bu ildiz qanchalik chuqur bo'lsa, tug'ilib o'sgan Vatanga muhabbat ham shu qadar cheksiz bo'ladi.

Vatanparvarlik deganda esa yana quyidagilarni anglash joiz:

-o'z xalqini, tarixini yaxshi bilish va u bilan fahrlanish:

-qadimiy obidalar, mislsiz imoratlar, ajdodlar yaratgan moddiy va ma'naviy me'roslarni ko'z qorachig'iday asrash va avlodlarga taqdim etish:

-xalqimizning, ajdodlarimizning go'zal va ma'noli urf-odatlar, rasm-rusm va udumlarni qadrlay bilish, ularni davom ettirish:

-ajoyib vatandoshlar - ajdodlar nomi bilan, ularni ulug' ishlari, ijodlari bilan fahrlanish, ularni ishlarini davom ettirish, ularga munosib voris bo'lish:

-shunday ajoyib xalqqa, yurtga, uning boy tili va madaniyatiga mansubligi bilan fahrlanish:

-turon zaminni himoya qilib, tomirdan ohirgi qoni qolguncha dushmanga qarshi kurashgan bahodirlarni, ayovsiz janglarda halok bo'lgan qahramonlarni yod etish:

-asrimizning 20-50 yillari va nihoyat 80- yillarida xalqimiz, millatimizga qarshi uyuşhtirilgan qatag'onlarda qamoq va surgin a'zoblarni boshdan kechirgan va halok bo'lgan minglab millatmiz gullarini unutmaslik:

-bu aziz va go'zal vatanimizda yuksak e'tiqod bilan yashash unga hamisha sadoqatli bo'lishdir.

Harbiy vatanparvarlik hammamizning o'z ishimizga mas'uliyat bilan qarash, vatanning boyliklarini ko'z qorachig'iday asrash, boyliklariga boylik qo'shishga o'z ulushimizni qo'shish uni fan cho'qqilari sari intilish va boshqalardir.

Vatanparvarlik bir so'z bilan aytganda o'z ijobiy ishlarimiz, bunyodkorlik harakatlarimiz bilan uning kuch-qudratiga, gullab yashnashiga imkon darajasida hissa qo'shish:

- ona yurtimizda tinchlik, barqarorlikni va osoyishtalikni saqlashga intilish vatanparvarlikning belgisidir;

- vatanparvarlik-xalqaro munosabatlarda vatan, millat manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yishdir.

O'zbekiston Konstitutsiyasining 49-moddasida «Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab-asrashga majburdirlar» deb ta'kidlangan. Bu har bir sog'lom avlodda o'z xalqining a'nalariga, tili va madaniyatiga muhabbat va hurmatni tarbiyalash bilan birga, o'z Vatani, millatining butun jahon hamjamiyatida teng huquqli mustaqil davlat sifatida namoyon bo'lishiga hissa qo'shuvchi haqiqiy insonni shakllantirishni taqozo qiladi.

Vatanparvarlik tushunchasi insonparvarlik tushunchasi bilan uyg'undir. Vatanparvarlik uchun intilish, vatanpavrvarlik uchun kurashning zaminida insonparvarlik yotadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. Amir Temur jahon tarixida /Mas’ul muhar. H.Karamatov. Mualliflar jamoasi. S.Saidqosimov (rahbar). – T.: Sharq nashriyot-matbaa kontserni, 2001. – 304 b.
2. Avloniy Abdulla. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi 1992. -160
3. Do’stmuxamedova Sh.A., Nishonova Z.T., Jalilova S.X., Karimova Sh.K., Alimbayeva Sh.T. "Yosh davrlar va pedagogik psixologiya" – Toshkent: TDPU, 2013.
4. Inoyatov I.Y., Abilov M.X. «Vatan himoyasi muqaddas burch» Toshkent. "O’zbekiston". 2001y.
5. Nasriddinov Ch.R. Harbiy psixologiya. Toshkent. «Fan» nashriyoti 2004.
6. Ortiqov O. va boshqalar. Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma «ILM ZIYO» nashriyot uyi, 2013-y
7. G‘oziyev E. «Umumiy psixologiya» O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati T. 2010 y.
8. G‘oziyev E.G‘. Ontogenet psixologiyasi. – Toshkent: Noshr. 2010.